Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEKISTONDA PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING SO‘NGGI YILLARDAGI SAMARADORLIGI: STATISTIK VA IQTISODIY TAHLIL (2023–2026-YILLAR MA’LUMOTLARI ASOSIDA)

O‘roqova Laylo Akmaljon qizi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23086531

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati instrumentlari, ularning iqtisodiyot va inflyatsiyaga ta’sir mexanizmi hamda 2023–2026-yillardagi asosiy statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Asosiy stavka, REPO operatsiyalari, depozit operatsiyalari, Markaziy bank obligatsiyalari, majburiy zaxira talablari va banklararo pul bozori ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Natijalar inflyatsiyaning 2024-yildagi 9,8 foizdan 2025-yilda 7,3 foizga, 2026-yil avgustida 6,2 foizga pasaygani, shu bilan birga real iqtisodiy o‘sish yuqori darajada saqlanganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: pul-kredit siyosati, asosiy stavka, inflyatsiya, REPO, UZONIA, likvidlik, majburiy zaxira, monetar transmission.

1. Kirish

O‘zbekiston Markaziy bankining zamonaviy pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini ta’minlash va inflyatsiyani o‘rta muddatda 5 foizlik target darajasiga olib kelishga qaratilgan. Asosiy stavka pul-kredit siyosatining markaziy instrumenti bo‘lib, u banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli foiz stavkalariga, keyinchalik kredit va depozit stavkalariga hamda yalpi talabga ta’sir qiladi. Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, asosiy stavkaning operatsion maqsadi banklararo overnayt stavkalarining asosiy stavkaga yaqin shakllanishini ta’minlashdan iborat.

Shu sababli pul-kredit siyosatini faqat asosiy stavka orqali emas, balki likvidlikni boshqarish instrumentlari va pul bozoridagi real stavkalar orqali baholash zarur. 2025-yil IV choragida banklararo pul bozori operatsiyalari 183,6 trln so‘mni, 2026-yil I choragida esa 163 trln so‘mni tashkil etgani bozor mexanizmlarining sezilarli hajmga ega ekanini ko‘rsatadi.

2. Pul-kredit siyosati instrumentlari

Ochiq bozordagi operatsiyalar – monetar siyosatining eng muhim instrumenti hisoblanadi, chunki u pul massasini hajmini belgilovchi foiz stavkalari va pul bazasini boshqarish imkoniyatini beradi. U davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotish va sotib olishni o‘zida aks ettiradi. Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari orqali iqtisodiyotga uch tomonlama ta’sir ko‘rsatadi:

1. Depozitar tasahkilotlar zaxiralari o‘zgaradi.
2. Qimmatli qog‘ozlar narxi (demak, daromadlilik) o‘zgaradi.
3. Iqtisodiyotdagi kutishlar o‘zgaradi.

Markaziy bank depozitar tashkilotlardan davlat obligatsiyalarni xarid qilganda depozitar tashkilotlar zaxiralari o‘zgaradi. Davlat obligatsiyalari xususiy sektordan xarid qilinganda ham depozitar tashkilotlarning zaxiralari ko‘payadi. Shunday qilib, Markaziy bank davlat qimmatli qog‘ozlarini kimdan xarid qilmasin, depozitar tashkilotlar zaxiralari xarid summasiga teng miqdorda ko‘payadi. Davlat obligatsiyalari sotib olinganda esa, aksincha, depozitar tashkilotlar zaxiralari kamayadi va u

odatda pul massasini ko‘p karra pasayishiga olib keladi. Xarid hajmining ortishi narxning o‘sishiga, u esa daromadlilikni kamayishiga olib boradi.

Markaziy bank faoliyatini kuzatuvchilar – fond bozori tahlilchilari, investorlar, korporatsiyalarning moliyaviy direktorlari va boshqa kishilar ochiq bozor operatsiyalarini kuzatib borishadi va uning foiz stavkalari va inflyatsiyalarga kelgusidagi ta’sirini oldindan bashorat qilishadi.

Maqsadi qanday bo‘lishiga qaramay, markaziy bank ochiq bozordagi operatsiyalarning asosiy ikki xilidan foydalanadi:

1. Bevosita xaridlar yoki sotishlar.

2. REPO bitimi bo‘yicha xaridlar, oldi-sotdi bitimlari bo‘yicha sotishlar (teskari REPO, shuningdek, qo‘sh bitimlar deb ham yuritiladi).

Bevosita xarid qilish yoki sotishda markaziy bankning bitimlar bo‘yicha hech qanday majburiyatlarsiz ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni xarid qilishi yoki sotishi tushuniladi. Agar markaziy bank qimmatli qog‘ozlarni xarid qiladigan bo‘lsa, u muayyan muddatdan so‘ng ularni sotib olishga majbur emas. Agar markaziy bank qimmatli qog‘ozlarni sotgan bo‘lsa, sotuvchi markaziy bankka uni qaytarib sotishga majbur emas.

REPO bitimlari bo‘yicha markaziy bank qimmatli qog‘ozlarni dilerdan xarid qiladi va diler bu qimmatli qog‘ozlarni belgilangan muddatda va muayyan narxda sotib olishga kelishadi. Mohiyatan, bunday operatsiya markaziy bankning dilerga qarzidir; foiz stavkasi dilerlar o‘rtasidagi kim oshdi savdosi yo‘li bilan aniqlanadi. Markaziy bankning bunday bitimlar bo‘yicha xaridi REPO bitimi deyiladi. Teskari REPO operatsiyalarida markaziy bank dilerga qimmatli qog‘ozlarni sotadi, shuningdek, oldindan o‘rnatilgan narx bo‘yicha va belgilangan muddatda ularni qayta sotib olishga kelishadi. Bu summa markaziy bankning dilerdan olgan qarzidir.

REPO va teskari REPO odatda qisqa muddatli shartnomadir. Ochiq bozordagi operatsiyalarni ikki turga: monetar baza va zaxiralar darajasini o‘zgartirishga mo‘ljallangan ochiq bozordagi dinamik operatsiyalarga va monetar bazaga bilvosita omillarning ta’sirini yumshatuvchi ochiq bozordagi himoya operatsiyalariga bo‘lishadi. Himoya operatsiyalari depozitar tashkilotlarning yalpi zaxiralari joriy darajasini saqlash uchun tuzatishlardir. REPO bitimlari vaqtinchalik zaxiralarni, teskari REPO bitimlari vaqtinchalik ortiqcha zaxiralarni chiqarib tashlaydi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar monetar siyosatning boshqa instrumentlariga nisbatan bir nechta ustunlikka ega:

1. Ochiq bozordagi operatsiyalar markaziy bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi va ularning hajmi markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi. Bunday nazorat, masalan, diskont operatsiyalarni o‘tkazishda mavjud emas. Markaziy bank diskont stavkalarini o‘zgartirib, banklarning diskont qarzlarga talabini oshiradi yoki kamaytiradi, ammo diskont qarzlar hajmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qila olmaydi.

2. Ochiq bozordagi operatsiyalar egiluvchan va yuqori aniqlikka ega, ya’ni ular har qanday hajmga ega bo‘la olishadi. Agar zaxiralar yoki monetar bazani sezilarsiz darajada o‘zgartirish talab qilinsa, qimmatli qog‘ozlarni kichik summaga xarid qilib yoki sotib, bunga erishish mumkin. Agar zaxiralarni sezilarli darajada o‘zgartirish kerak bo‘lsa, u holda ochiq bozordagi operatsiyalar juda katta miqdordagi qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish yoki sotish imkonini beradi.

3. Ochiq bozordagi operatsiyalar oson qaytariluvchan xususiyatga ega. Agar ochiq bozordagi operatsiyalarni amalga oshirishda xatolikka yo‘l qo‘yilsa, markaziy bank tezda uni bekor qila oladi.

Agar markaziy bank banklararo kreditning foiz stavkasi juda ham past degan qarorga kelsa, u darhol qimmatli qog‘ozlarni sotib, maqsadiga erishadi.

4. Ochiq bozordagi operatsiyalar tez amalga oshiriladi. Agar markaziy bank zaxiralar va monetar bazani o‘zgartirish kerak degan xulosaga kelsa, u bu haqida birlamchi dilerga xabar beradi va shu zahoti bitim amalga oshiriladi.

Markaziy bank tomonidan depozitar tashkilotlarni kreditlash pul-kredit siyosatining yana bir vositasidir. Banklarga kreditlar shaklida qo‘shimcha zaxiralarni taqdim etish “diskont oyna” orqali kreditlash deyiladi, ushbu kreditlar bo‘yicha markaziy bankka to‘lanadigan foiz stavkalari hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb ataladi. “Diskont oyna” orqali qarz olishning ortishi pul bazasini oshiradi, uning kamayishi esa pul bazasini qisqartiradi.

2003-yildan boshlab FRT (Federal Zaxira Tizimi) banklarni “diskont oyna” orqali kreditlash usulini o‘zgartirdi. 2003-yilgacha FRT banklarga faqatgina favqulodda vaziyatlardagina diskont kreditlar berardi. Eski usul bo‘yicha banklar FRTdan olgan kreditlarini maqsadli sarflanishi (foyda olish uchun emas) ustidan nazorat o‘rnatilardi. Ammo vaqt o‘tishi bilan banklar FRTdan tobora kamroq qarz ola boshlashdi, chunki investorlar bu yo‘l bilan olingan qarzlarni bank menejmentining sifati yomonligidan darak beruvchi signal sifatida qabul qilishardi. FRT o‘zining oxirgi bosqich kreditori rolini yo‘qotayotganligi, shuningdek, “diskont oyna” orqali banklarning qarz mablag‘larini olishni xohlamayotganligi foiz stavkalarining tebranishiga olib kelishi mumkinligidan tashvishlana boshladi.

FRT qarz berishning yangi ikki usulini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, yaxshi faoliyat yurituvchi banklar FRT nazoratisiz birinchi darajali diskont kreditlar olishi mumkin. Yaxshi holatda bo‘lmagan banklar ham qarz olish imkoniyatiga ega, ammo ular FRT tomonidan qattiq nazorat qilinadigan va yuqori foiz stavkasi ostida beriladigan ikkinchi darajali diskont kreditlar olishi kerak.

Yangi siyosat banklarning FRTdan qarz olishini bir necha barobarga oshirdi. FRTning yangi siyosatni joriy qilishdan olgan foydasi ma’muriy tashvishlari kamayganligi va foiz stavkalari tebranishlari pasayganligidan iborat.

2003-yildan boshlab FRT birinchi darajali kreditlar bo‘yicha hisob stavkasini federal fond stavkalaridan 1 foiz punktga yuqori qilib o‘rnatdi, ikkinchi darajali kreditlar bo‘yicha hisob stavkasi esa yana 0,5 foiz punktga yuqoriroq etib belgilandi.

Diskont siyosat o‘zining nisbiy ustunliklari va kamchiliklariga ega. Uning eng asosiy ustunligi – markaziy bankning oxirgi bosqich kreditori rolini o‘ynashidir. Oldinlari diskont siyosat monetar siyosatning instrumenti sifatida, ya’ni diskont stavkaning o‘zgarishi pul bozoridagi foiz stavkalariga ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanilar edi. Ammo markaziy bank banklarning diskont kreditlar bo‘yicha qarorlarini to‘la boshqara olmasligi diskont siyosat – monetar siyosatning kuchsiz instrumenti ekanligini ko‘rsatmoqda.

Yangi tizimga ko‘ra, diskont oyna banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini o‘rnatmaydi, faqatgina bu stavkaning bozor qiymati maqsadli qiymatdan haddan tashqari oshib ketmasligini kuzatib boradi.

Rivojlangan mamlakatlar pul-kredit siyosatining uchinchi eng kam qo‘llaniladigan instrumenti – zaxira talablaridir. Markaziy bank depozitar tashkilotlardan depozitlariga nisbatan muayyan normada rezervlarni saqlashni talab qiladi.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, zaxira talablari pul multiplikatorini o‘zgartirgan holda pul massasiga ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy bank pul bazasi miqdorini nazorat qiladi, ammo pul multiplikatoriga qisman

ta’sir o‘tkazishi (zaxira talablari orqali) sababli, pul massasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqara olmaydi. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning matematik ifodasi quyidagicha:

ΔM = Δm × MB

bu yerda M – pul massasi, MB – pul bazasi, m – pul multiplikatori, Δ – miqdor o‘zgarishi.

Rivojlangan mamlakatlarning qariyb 70 foizi zaxira talablaridan foydalanishda davom etmoqda. Undan faqatgina Avstraliya, Kanada, Daniya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiya voz kechdi.

Zaxira talablaridan foydalanishning eng muhim afzalligi shundaki, pul massasi va foiz stavkalarini nazorat qilishda u barcha banklar uchun bir xil va pul massasi hajmiga kuchli ta’sir etadi.

Ushbu instrumentning kamchiligi haddan ziyod ta’sir kuchiga ega ekanligidir. Shuning uchun pul massasi va foiz stavkalarida uncha katta bo‘lmagan o‘zgarishlarni amalga oshirishda ulardan foydalanish mumkin emas. Zaxira talablaridan foydalanishning yana bir kamchiligi shuki, majburiy zaxira normasining oshirilishi bilanoq ortiqcha zaxiralari kam bo‘lgan banklarda likvidlilik muammosini yuzaga kelishidir. Zaxira talablarining nobarqarorligi shuningdek, noaniqlikka ham sabab bo‘ladi va bank likvidliligini boshqarishni qiyinlashtiradi.

Pul-kredit siyosatini olib borishda markaziy bank o‘zining muayyan maqsadlariga ega bo‘ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun u pul-kredit siyosatining instrumentlaridan foydalanadi. Muammo shundaki, markaziy bank o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun o‘zi bevosita nazorat qiladigan instrumentlardan qanday foydalanish kerakligida. Chunki eng so‘nggi maqsadlar bilan instrumentlar orasida aniq prognoz qilib bo‘lmaydigan bir qancha bosqichlar bor. Shuning uchun markaziy bank bevosita o‘zi nazorat qila olmaydigan, ammo o‘zi intiladigan maqsadlarga eng yaqin makroiqtisodiy o‘zgaruvchilar – oraliq mo‘ljallarni belgilaydi.

Har qanday markaziy bank kabi Federal zaxiraning monetar siyosati shunday 6 ta strategik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan:

1. Bandlikning yuqori darajasi.
2. Iqtisodiy o‘sish.
3. Narxlarning barqarorligi.
4. Foiz stavkalarining barqarorligi.
5. Moliyaviy bozorlarning barqarorligi.
6. Valyuta bozorlarining barqarorligi.

Bandlikning yuqori darajasi – eng muhim maqsaddir. Birinchidan, ishsizlik kambag‘allik, oilalarning buzilishi, jinoyatchilikning ko‘payishi va boshqa ko‘plab ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, ishsizlikning yuqori darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan potensial darajada foydalanilmaydi va umumiy ishlab chiqarish hajmi pasayadi.

Barqaror iqtisodiy o‘sish bandlikning yuqori darajasiga mos keladi, chunki ishsizlikning past darajasida firmalar yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan texnikalarga ko‘proq investitsiya qilishadi.

Narxlar barqarorligi strategik maqsadlardan biri hisoblanadi, chunki narxlar darajasining o‘sishi noaniqlikning manbasi bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiy o‘sishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Qolaversa, inflyatsiya kelajakni rejalashtirishga ham g‘ov bo‘ladi.

Foiz stavkalarining barqarorligi muhim, chunki uning tebranishi iqtisodiyotda noaniqliklarga sabab bo‘ladi va kelajakni rejalashtirishga salbiy ta’sir etadi.

Asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalari uchun signal vazifasini bajaradi. Stavkaning oshirilishi qarz olishni nisbatan qimmatlashtirib, jamg‘arishni rag‘batlantiradi va yalpi talabni

pasaytirish orqali inflyatsion bosimni yumshatadi. Aksincha, inflyatsiya targetdan past bo‘lish xavfi kuchaysa, stavkani pasaytirish iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Likvidlik operatsiyalari ushbu foiz signalining amalda ishlashini ta’minlaydi. REPO orqali Markaziy bank bank tizimiga likvidlik beradi yoki jalb qiladi; depozit va boshqa sterilizatsiya operatsiyalari esa ortiqcha likvidlikni qisqartirishga xizmat qiladi. 2025-yil IV choragida REPO operatsiyalari pul bozoridagi operatsiyalarning 70 foizini tashkil qilgan. 2026-yil I choragida bu ulush 74 foizga yetgan.

Majburiy zaxira talablari ham monetar transmissionning muhim elementi hisoblanadi. 2025-yil 1-oktyabrdan majburiy zaxiralash bazasi kengaytirilgan, xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo‘yicha normativ 10,5 foizdan 9,5 foizga pasaytirilgan. 2026-yil 1-yanvardan baza qamrovi 15 foizdan 20 foizga oshirilgan, mazkur o‘zgarishning banklarga ta’sirini yumshatish maqsadida xorijiy valyutadagi majburiyatlar normativi 8,5 foizgacha tushirilgan.

3. Inflyatsiya va asosiy stavka dinamikasi

Yil	Inflyatsiya, %	Asosiy stavka, %	Target, %
2023	8.8	14.0	5.0
2024	9.8	13.5	5.0
2025	7.3	14.0	5.0
2026*	6.2	14.0	5.0



1-rasm. Inflyatsiya va asosiy stavka dinamikasi. 2026-yil uchun inflyatsiya avgust oyidagi yillik ko‘rsatkich, asosiy stavka esa sentyabr holatidir.

Grafikdan ko‘rinadiki, 2024-yilda inflyatsiya 9,8 foizgacha yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil yakunida 7,3 foizgacha pasaygan va 2026-yil avgustida 6,2 foizni tashkil etgan. Shu davrda asosiy stavka 2025-yilda 14 foiz darajasida saqlanib, 2026-yilda ham 14 foizda qolmoqda. Markaziy bank 2025-yil yakunida qat’iy pul-kredit sharoitlari, almashuv kursining mustahkamlanishi va import narxlari dinamikasini inflyatsiyaning pasayishiga yordam bergan omillar sifatida qayd etgan.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, inflyatsiyaning 5 foizlik targetga yaqinlashishi monetar sharoitlarning real iqtisodiyotga uzatilayotganini ko‘rsatadi, biroq 6,2 foizlik daraja targetdan hali yuqori. Demak, Markaziy bank uchun asosiy masala faqat inflyatsiyani pasaytirish emas, balki pasayish jarayonining

barqarorligini ta’minlashdir. Xizmatlar inflyatsiyasi va ichki talabning yuqoriligi bu jarayonning asosiy xatarlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

4. Iqtisodiy o‘sish va monetar sharoit

Davr	Real YAIM o‘sishi	Izoh
2023	6,3%	Yillik
2024	6,7%	Yillik
2025	7,7%	Yillik
2026 I chorak	8,7%	Choraklik yillik o‘sish



2-rasm. Real YAIM o‘sishi. 2026-yil ko‘rsatkichi I chorakdagi o‘sishni bildiradi va to‘liq yil bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirilmasligi kerak.

2025-yilda real YAIM 7,7 foizga o‘sdi. Markaziy bank bu natijani iste’mol va investitsiya talabining barqarorligi, fiskal rag‘batlantirish va tashqi iqtisodiy sharoitlar bilan izohlaydi. 2026-yil I choragida o‘sish 8,7 foiz bo‘lgani esa iqtisodiy faollik yuqori darajada qolganini ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda monetar siyosatning vazifasi iqtisodiy o‘sishni sun’iy ravishda cheklash emas, balki yuqori talabning taklif imkoniyatlaridan ortiqcha ketishi natijasida yuzaga keladigan narx bosimini nazorat qilishdan iborat.

5. Pul bozori va likvidlik: instrumentlarning amaliy ishlashi

Ko‘rsatkich	**2025 IV chorak**	**2026 I chorak**	**O‘zgarish**	**Iqtisodiy mazmun**
Pul bozori hajmi	183,6 trln so‘m	163 trln so‘m	−11,2%	Yuqori hajmdagi likvidlik qayta taqsimoti
Overnayt ulushi	86%	89%	+3 p.b.	Qisqa muddatli likvidlikka yuqori talab
REPO ulushi	70%	74%	+4 p.b.	REPOning markaziy bozor instrumenti sifatidagi roli kuchaygan
UZONIA	13,9%	13,7%	−0,2 p.b.	Asosiy stavkaga yaqin shakllanish



3-rasm. Banklararo pul bozori operatsiyalari hajmi. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

2025-yil IV choragida banklararo pul bozori operatsiyalari 183,6 trln so‘mni, 2026-yil I choragida 163 trln so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, overnayt operatsiyalar ulushi 86 foizdan 89 foizga, REPO operatsiyalari ulushi esa 70 foizdan 74 foizga oshdi. Bu holat bank tizimida likvidlikning qayta taqsimlanishida qisqa muddatli instrumentlar muhim o‘rin tutayotganini anglatadi.

2026-yil I choragida Markaziy bank o‘rtacha haftalik 49,2 trln so‘mlik 7 kunlik Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirgan va UZONIA o‘rtacha 13,7 foiz atrofida shakllangan. Bu 14 foizlik asosiy stavkaga juda yaqin bo‘lib, operatsion mexanizmning foiz signalini pul bozoriga uzatish qobiliyatini ko‘rsatadi.

6. Asosiy xulosalar

• 2023–2026-yillarda pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishi inflyatsiyani bosqichma-bosqich pasaytirish va 5 foizlik targetga yaqinlashtirish bo‘ldi.

• 2025-yilda inflyatsiyaning 7,3 foizgacha pasayishi qat’iy monetar sharoitlar bilan birga almashuv kursi va import narxlari omillarining ham ta’sirini aks ettirdi.

• Yuqori iqtisodiy o‘sish sharoitida asosiy stavkaning 14 foizda saqlanishi Markaziy bankning yalpi talab va inflyatsion kutilmalarni jilovlashga urg‘u berayotganini ko‘rsatadi.

• Pul bozori operatsiyalarida REPO va overnayt bitimlarining yuqori ulushi likvidlikni qisqa muddatda boshqarish mexanizmlari muhimligini ko‘rsatadi.

• 2026-yil I choragida UZONIAning 13,7 foiz atrofida shakllanishi 14 foizlik asosiy stavkaga yaqin bo‘lib, foiz koridorining operatsion ishlashini ko‘rsatadi.

• Inflyatsiya hali 5 foizlik targetdan yuqori bo‘lgani sababli, keyingi davrda pul-kredit siyosati samaradorligi inflyatsion kutilmalar, xizmatlar narxlari, kreditlash va pul bozoridagi stavkalar dinamikasi bilan birgalikda baholanishi lozim.